



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL / IYUL / 7-SON,
I-QISM



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
I-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

MHXS (IFRS) ASOSIDA MOLIYAVIY HISOBOT TUZISHNING KORXONA RENTABELLIGI VA TO'LOVGA QOBILIYATLILIGINI TAHLIL QILISHDAGI O'RNI.....	12
Urakova Maxsad Xakimovna	
QAYTA TIKLANMAYDIGAN RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	18
Yusupova Jamila Karamatdinovna	
COMPARATIVE ANALYSIS OF DIGITAL FINANCIAL TECHNOLOGIES FOR CREDIT RISK PREDICTION AND MANAGEMENT IN COMMERCIAL BANKS BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND BIG DATA ANALYTICS.....	21
Kholdorov Sardor Umarovich	
O'ZBEKISTONDA AGROINVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	28
Yusupov Komaliddin Baxtiyor o'g'li	
O'ZBEKISTONDA NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR UCHUN ICHKI TURISTIK MAHSULOTLAR TAHLILI.....	33
Zoxidov Firuz Faxritdinovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯМИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА.....	38
Эргашбаева Нилуфар Мухаммадсайфуллаевна	
MUSTAQIL TURISTLAR OQIMINI OSHIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA VA UNI O'ZBEKISTON SHAROITIGA MOSLASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	42
Muzaffarov Akmal Axmadovich	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ЧАТ-БОТОВ В СИСТЕМЕ РЕГУЛИРОВАНИЯ ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ	49
Ирматова Азиза Бахрамовна	
OROL BO'YI MINTAQASIDA YASHIL IQTISODIYOT ASOSIDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	56
Akramova Feruza	
RECENT MEDICAL TOURISM RESEARCH IN THE WEB OF SCIENCE CORE COLLECTION	68
Hao Xiaohui	
HARBIY XIZMATCHILARNI KIYIM-KECHAK BILAN TA'MINLASHDA ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	76
Omonov Usmonqul Raxmonqul o'g'li	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA OSHIRISHNING ZAMONAVIY IQTISODIY MEXANIZMLARI	83
Inobatov Abror Boshlarovich	
КОММУНАЛЬНАЯ ИНФРАСТРУКТУРА И МЛАДЕНЧЕСКАЯ СМЕРТНОСТЬ: ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПО РЕГИОНАМ УЗБЕКИСТАНА ЗА 2012–2024 ГОДЫ.....	92
Мамбетсапаев Курбанияз Айниязович	
АНАЛИЗ ФАКТОРОВ ФОРМИРОВАНИЯ КОНКУРЕНТНОГО ПОТЕНЦИАЛА ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ	97
Ташмухамедова Карима Саматовна	
СУТЬ УПРАВЛЕНИЯ СТРАТЕГИЕЙ ПРЕДПРИЯТИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ	104
Тарават Абдул Салам	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTITSIYALAR MANBALARI RIVOJLANISHINING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI.....	112
Ibadullayev Dilshad Ibragimovich	



BARQAROR SHAHARSOZLIKNI TA'MINLASHDA TRANSPORT INFRATUZILMASINING EKOLOGIK VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	117
Permatov Ilxomjon Juraboyevich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR SHAHARSOZLIKNI HUQUQIY ASOSLARINI RIVOJLANTIRISH	121
Inoyatova Gulnoz Kadamovna	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK OMILLARNING BINOLAR YEMIRILISHIGA TA'SIRINI KOMPLEKS BAHOLASH VA ULARNI KAMAYTIRISH USULLARI (TOSHKENT SHAHRI MISOLIDA).....	125
Turabova Shodiya Anvarjon qizi	
MHXSDA TUSHUM VA MOLIVAVIY INSTRUMENTLAR BO'YICHA PUL MABLAG'LARI OQIMINI HISOBGA OLISH	132
Eshonqulov Akmal Qudratovich	
BOJXONA IMTIYOZLARINING DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARIGA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	138
Latipov Jahongir Shavkatovich	
O'ZBEKISTONDA XUSUSIY TA'LIM TIZIMIDA KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI TENDENSIYALARI	144
Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li	
EKOLOGIK TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSION USULLARNING SAMARADORLIGI.....	150
Usmanova Gulida Valiyevna	
BUXORO VILOYATIDAGI KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI TARMOQLARARO IQTISODIY SAMADORLIGI EKONOMETRIK TAHLILI	156
Nazarov Nazar G'ulom o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KO'CHMAS MULK BOZORIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	163
Sadikova Dildora Abdulla qizi	
MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH EKOTIZIMINING FUNKSIONAL BOG'LIQLIGI.....	167
Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich	
СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫМИ ФИНАНСОВЫМИ ОПЕРАЦИЯМИ	172
Исмоилова Жасмина Ильхом кизи	
SANOAT KLASSTERLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INNOVATSION FAOLIYATGA TA'SIRI	178
Mamadaliyev Anazxon Ziyodillayevich	
XIZMATLAR SOHASIDA KICHIK BIZNES KORXONALARINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI	183
Ulmasova Oygul Baxtiyorovna	
BIOLOGIK RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA INNOVATSION BOSHQARUV USULLARI.....	188
Babadjanov Akmal Shuxratovich	
ZAMONAVIY JAMIYATDA AHOLINING EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISH MEXANIZMLARI.....	193
Xudoyberdiyev Norbek Komiljon o'g'li	
O'ZBEKISTON KONTEKSTI: IQLIM O'ZGARISHI, OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI VA MOSLASHTIRISH SIYOSATLARI	198
Haydarov Ibrohimxon Abbosxon o'g'li	
TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI VA BOJXONA NAZORATINI BOSHQARISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	202
Kilichov Nazar Bafoevich	



TA'LIM XIZMATLARI VA ULARNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	208
Yusupova I.R.	
OROLBO'YI HUDUDLARINING IJTIMOIIYQTISODIY SALOHİYATINI KOMPLEKS	
BAHOLASH VA USTUVOR RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	212
Dosnazarov Kallibek Kalbayevich	

UDK: 332.1:330.4

OROLBO'YI HUDUDLARINING IJTIMOIIY-IQTISODIY SALOHIYATINI KOMPLEKS BAHOLASH VA USTUVOR RIVOJLANISH YO'NALISHLARI



Dosnazarov Kallibek Kalbayevich
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Qoraqalpog'iston bo'limi
Qoraqalpogq tabiiy fanlar ilmiy-tadqiqot instituti
katta ilmiy xodim
ORCID: 0009-0000-8462-5718
E-mail: kallibek869@gmail.com

ANNOTATSIYA. Qoraqalpog'iston Respublikasining Orolbo'yi hududlari ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati kompleks iqtisodiy-statistik tahlil asosida baholangan. Tadqiqotning maqsadi Qo'ng'iro't, Mo'ynoq va Qonliko'l tumanlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi hamda iqtisodiy ixtisoslashuvini qiyosiy baholashdan iborat. Tadqiqotda iqtisodiy-statistik, qiyosiy, tizimli va kompleks tahlil usullaridan foydalanilgan. Tahlil natijalari har bir tumanning iqtisodiy rivojlanishi uning resurs salohiyati, tarmoq ixtisoslashuvi va investitsion faolligi bilan belgilanishini ko'rsatdi. Olingan natijalar asosida hududlarni differensial rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari ilmiy jihatdan asoslandi. Shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiya qilish, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish hamda mahalliy resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqildi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi Orolbo'yi hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini kompleks qiyosiy baholash hamda ularning iqtisodiy ixtisoslashuviga mos ustuvor rivojlanish yo'nalishlarini ilmiy asoslash bilan tavsiflanadi. Olingan natijalar hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Orolbo'yi hududlari, ijtimoiy-iqtisodiy salohiyat, iqtisodiy-statistik tahlil, iqtisodiy ixtisoslashuv, investitsiyalar, sanoat, agrosanoat majmuasi, xizmatlar sohasi, barqaror rivojlanish, Qo'ng'iro't, Mo'ynoq, Qonliko'l.

АННОТАЦИЯ. На основе комплексного экономико-статистического анализа проведена оценка социально-экономического потенциала Приаральских территорий Республики Каракалпакстан. Цель исследования заключается в сравнительной оценке уровня социально-экономического развития и экономической специализации Кунградского, Муйнакского и Канлыккульского районов. В исследовании использованы экономико-статистический, сравнительный, системный и комплексный методы анализа. Результаты исследования показали, что экономическое развитие каждого района определяется его ресурсным потенциалом, отраслевой специализацией и инвестиционной активностью. На основе полученных результатов научно обоснованы приоритетные направления дифференцированного развития территорий. Разработаны практические предложения по диверсификации отраслей экономики, повышению инвестиционной привлекательности и эффективному использованию местных ресурсов. Научная новизна исследования состоит в комплексной сравнительной оценке социально-экономического потенциала Приаральских территорий и научном обосновании приоритетных направлений их развития с учётом экономической специализации. Полученные результаты имеют важное научно-практическое значение для совершенствования стратегии устойчивого социально-экономического развития территорий.



Ключевые слова: Приаральские территории, социально-экономический потенциал, экономико-статистический анализ, экономическая специализация, инвестиции, промышленность, агропромышленный комплекс, сфера услуг, устойчивое развитие, Кунград, Муйнак, Канлыкүль.

ABSTRACT. A comprehensive economic and statistical assessment of the socio-economic potential of the Aral Sea region of the Republic of Karakalpakstan is presented. The study aims to comparatively evaluate the level of socio-economic development and economic specialization of the Kungrad, Muynak, and Kanlikul districts. Economic-statistical, comparative, systematic, and comprehensive analytical methods were employed. The findings demonstrate that the economic development of each district is determined by its resource potential, sectoral specialization, and investment activity. Based on the obtained results, priority directions for the differentiated development of the territories are scientifically substantiated. Practical recommendations have been developed for economic diversification, enhancing investment attractiveness, and improving the efficient use of local resources. The scientific novelty of the study lies in the comprehensive comparative assessment of the socio-economic potential of the Aral Sea region and the scientific substantiation of priority development directions aligned with the economic specialization of each territory. The findings have significant scientific and practical value for improving strategies aimed at the sustainable socio-economic development of the region.

Keywords: Aral Sea region, socio-economic potential, economic and statistical analysis, economic specialization, investments, industry, agro-industrial complex, service sector, sustainable development, Kungrad, Muynak, Kanlikul.

KIRISH

Hozirgi kunda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini kompleks baholash hamda ularning ustuvor rivojlanish yo'nalishlarini belgilash mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida hududlarni mutanosib rivojlantirish, mahalliy resurslardan samarali foydalanish, investitsiya faolligini oshirish hamda aholi turmush darajasini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor vazifalari sifatida belgilangan [1, 2]. Ushbu vazifalarni amalga oshirish hududlarning iqtisodiy imkoniyatlarini chuqur tahlil qilish, ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini kompleks baholash hamda rivojlanishga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlashni taqozo etadi.

Orolbo'yi hududlari mamlakatning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega strategik mintaqalardan biri hisoblanadi. Orol dengizi inqirozi oqibatida tabiiy muhit, iqtisodiyot tarmoqlari, aholi bandligi, investitsiya jarayonlari hamda ijtimoiy infratuzilmada yuz bergan o'zgarishlar mazkur hududlarning iqtisodiy rivojlanish sur'atlari va tarkibiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois Orolbo'yi hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini obyektiv mezonlar asosida kompleks baholash, mavjud ichki imkoniyatlar va rivojlanishni cheklovchi omillarni aniqlash hamda ustuvor rivojlanish yo'nalishlarini belgilash dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot obyekti Qoraqalpog'iston Respublikasi Orolbo'yi hududlari, xususan, Qo'ng'iro't, Mo'ynoq va Qonliko'l tumanlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlari etib tanlandi.

Tadqiqot predmeti Orolbo'yi hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini baholashga ta'sir etuvchi iqtisodiy ko'rsatkichlar, resurs salohiyati hamda hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvi hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi Orolbo'yi hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini kompleks baholash, hududlar rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy iqtisodiy omillarni aniqlash hamda rasmiy statistik ma'lumotlar asosida ularning ustuvor rivojlanish yo'nalishlarini belgilashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- Orolbo'yi hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarini tahlil qilish;
- Qo'ng'iro't, Mo'ynoq va Qonliko'l tumanlarining iqtisodiy ixtisoslashuvi va resurs salohiyatini qiyosiy baholash;
- hududlarning iqtisodiy o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash;
- hududlarni differensial rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hududiy iqtisodiyot va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini baholash masalalari xorijiy hamda mahalliy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Jumladan, M.P. Todaro va S.C. Smith iqtisodiy rivojlanishning hududiy modellari, resurslardan samarali foydalanish hamda iqtisodiy o'sish omillarini nazariy jihatdan asoslab



berganlar [4]. K.D. White Orol dengizi havzasida ekologik o'zgarishlar hamda iqtisodiy faoliyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilgan [2].

Mahalliy olimlardan M.Q. Pardayev va D. Muxsimova hududiy iqtisodiyotni kompleks baholash hamda hududlar iqtisodiyotini diversifikatsiya qilishning nazariy-amaliy jihatlarini tadqiq etganlar [6, 7]. Shuningdek, N.K. Aimbetov, B.S. Tleumuradova va S.M. Mambetullayeva Qoraqalpog'iston Respublikasining tabiiy muhiti, ekologik holati hamda tabiiy resurs salohiyatini baholashga oid ilmiy tadqiqotlar olib borganlar [10]. J. Samanov hududning geologik tuzilishi, mineral xomashyo resurslari va ularning iqtisodiy ahamiyatini yoritgan [11]. M.K. Niyazimbetov esa ekologik transformatsiya sharoitida mintaqaning ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik tizimlarining o'zaro bog'liqligi hamda ularni integral baholash masalalarini tadqiq etgan [12].

Biroq, mazkur tadqiqotlarda Orolbo'yi hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini rasmiy statistik ma'lumotlar asosida kompleks qiyosiy baholash hamda hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuviga muvofiq ustuvor rivojlanish yo'nalishlarini belgilash masalalari yetarli darajada yoritilmagan. Shu jihatdan mazkur tadqiqotning o'ziga xosligi Qoraqalpog'iston Respublikasi Orolbo'yi hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini rasmiy statistik ma'lumotlar asosida kompleks qiyosiy baholash, hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvi va resurs salohiyatini hisobga olgan holda ustuvor rivojlanish yo'nalishlarini ilmiy asoslashdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli yondashuv, iqtisodiy-statistik tahlil, qiyosiy tahlil, dinamik qatorlar tahlili, tarkibiy tahlil, guruhlash, umumlashtirish hamda kompleks baholash usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika boshqarmasining **2023-yil** yakunlari bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlari tashkil etdi [13].

Iqtisodiy-statistik tahlil usuli asosida Orolbo'yi hududlarining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari baholanib, ularning rivojlanish holati aniqlandi. Qiyosiy tahlil usuli yordamida Qo'ng'iro't, Mo'ynoq va Qonliko'l tumanlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari o'zaro taqqoslanib, iqtisodiy ixtisoslashuvi hamda rivojlanish xususiyatlaridagi asosiy farqlar belgilandi. Dinamik qatorlar tahlili orqali **2022–2023-yillarda** iqtisodiy ko'rsatkichlar o'zgarishining asosiy tendensiyalari baholandi, tarkibiy tahlil yordamida esa sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmatlar sohasi va investitsiyalarning hudud iqtisodiyotidagi ulushi hamda tarkibiy o'zgarishlari o'rganildi.

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini kompleks baholashda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari hajmi, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, xizmatlar sohasi, chakana savdo aylanmasi, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hamda qurilish ishlari hajmi asosiy baholash mezonlari sifatida tanlandi. Guruhlash va umumlashtirish usullari orqali mazkur ko'rsatkichlar tizimlashtirilib, ularning o'zaro bog'liqligi tahlil qilindi.

Kompleks baholash tanlangan iqtisodiy ko'rsatkichlarni qiyosiy tahlil qilish asosida amalga oshirildi. Qo'llanilgan metodologik yondashuv Qo'ng'iro't, Mo'ynoq va Qonliko'l tumanlarining iqtisodiy ixtisoslashuvi, resurs salohiyati hamda ustuvor rivojlanish yo'nalishlarini ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Orolbo'yi hududlarining umumiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati

2023-yil yakunlari bo'yicha amalga oshirilgan iqtisodiy-statistik tahlillar Orolbo'yi hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi hamda iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanish xususiyatlari hududlar kesimida turlicha namoyon bo'layotganini ko'rsatdi. Rasmiy statistik ma'lumotlar tahlili respublika iqtisodiyotida sanoat, investitsiyalar, xizmatlar sohasi, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik iqtisodiy o'sishning asosiy manbalari hisoblanishini tasdiqladi [13].

Tahlil natijalariga ko'ra, 2023-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasida yalpi hududiy mahsulot hajmi 32 916,1 mlrd so'mni tashkil etib, uning o'sish sur'ati 103,5 % ni tashkil qildi. Shuningdek, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 18 803,1 mlrd so'm, sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 101,1 %, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 11 945,2 mlrd so'm, xizmatlar hajmi 12 876,7 mlrd so'm hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 16 548,3 mlrd so'mni tashkil etdi.

Mazkur ko'rsatkichlar Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiyotida sanoat, investitsiyalar va xizmatlar sohasining iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi muhim o'rnini hamda iqtisodiyot tarmoqlarida tarkibiy diversifikatsiya jarayonlari izchil davom etayotganini ko'rsatadi. Bu esa hudud iqtisodiyotining tarmoqlar bo'yicha diversifikatsiyasi bosqichma-bosqich amalga oshirilayotganini va iqtisodiy o'sishning bir nechta manbalari shakllanayotganini anglatadi.

Iqtisodiy-statistik tahlil natijalari respublika iqtisodiyoti tarmoqlari rivojlanish sur'atlarida muayyan farqlar mavjudligini aniqladi. Xizmatlar sohasida 110,8 %, investitsiyalar sohasida 107,4 % o'sish sur'atlari qayd etildi,



sanoat ishlab chiqarishida esa mazkur ko'rsatkich 101,1 % ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining jadal rivojlanishi uning respublika iqtisodiyotidagi ulushi ortib borayotganini ko'rsatadi. Investitsiyalar hajmining o'sishi esa yangi ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, mavjud korxonalarni modernizatsiya qilish hamda hududlarda iqtisodiy faollikni kuchaytirish uchun mustahkam asos yaratdi.

Kompleks tahlil natijalari Orolbo'yi hududlarida iqtisodiy rivojlanish darajasi, tarmoqlar tarkibi va iqtisodiy ixtisoslashuv yo'nalishlari bo'yicha sezilarli hududiy tafovutlar mavjudligini aniqladi. Hududlar o'rtasidagi mazkur tafovutlar resurs salohiyati, investitsiya faolligi, ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi hamda iqtisodiyot tarmoqlarining ixtisoslashuvi bilan bog'liq. Shu munosabat bilan Qo'ng'iro't tumanida sanoat va gaz-kimyo tarmoqlarini, Mo'ynoq tumanida gaz-kimyo, akvakultura va ekologik turizmni, Qonliko'l tumanida esa agrosanoat, to'qimachilik hamda mahalliy xomashyoni qayta ishlash yo'nalishlarini rivojlantirish ustuvor vazifalar qatoriga kiradi.

Qo'ng'iro't tumanining ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati va ustuvor rivojlanish yo'nalishlari

Iqtisodiy-statistik tahlil natijalari Qo'ng'iro't tumanining Qoraqalpog'iston Respublikasining yirik sanoat va transport-logistika markazlaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Hududning boy mineral xomashyo resurslari, qulay geografik joylashuvi va rivojlangan transport infratuzilmasi sanoat, gaz-kimyo, konchilik hamda logistika tarmoqlarining barqaror rivojlanishi uchun mustahkam iqtisodiy asos yaratgan. Shu jihatdan Qo'ng'iro't tumani nafaqat Qoraqalpog'iston Respublikasi, balki O'zbekiston iqtisodiyotida ham strategik ahamiyatga ega hududlardan biri hisoblanadi.

2023-yilda tumanda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1 259,8 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lib, sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 112,2 % ni tashkil qildi. Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 9 310,9 ming so'm, respublika sanoatidagi ulushi 6,7 % ni tashkil etdi. Shuningdek, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 2 205,6 mlrd so'm, qurilish ishlari 406,9 mlrd so'm, chakana savdo aylanmasi 806,8 mlrd so'm, xizmatlar hajmi 1 838,5 mlrd so'm hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 833,0 mlrd so'mni tashkil qildi [13].

Mazkur ko'rsatkichlar Qo'ng'iro't tumani iqtisodiyotida sanoat, investitsiyalar va xizmatlar sohasining yetakchi o'rin tutayotganini aks ettirdi. Ayniqsa, sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori o'sish sur'ati resurs salohiyatidan samarali foydalanish hamda yirik sanoat loyihalarining iqtisodiy ahamiyatini namoyon etdi.

Kompleks iqtisodiy tahlillar Qo'ng'iro't tumanining iqtisodiy o'sishi, avvalo, uning boy mineral xomashyo resurslari bilan belgilanishini ko'rsatdi. Hududda tabiiy gaz, neft, soda, tuz, fosforit, glaukonit, bentonit hamda boshqa foydali qazilmalarning mavjudligi yirik sanoat korxonalarini rivojlantirish uchun mustahkam resurs bazasini shakllantirgan. Bu esa hududning sanoat ixtisoslashuvini belgilashda asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Xususan, «Qo'ng'iro't soda zavodi» Markaziy Osiyoda kalsinatsiyalangan soda ishlab chiqaruvchi yirik sanoat korxonasi sifatida hudud iqtisodiyotida muhim o'rin egallaydi. Korxona mahalliy mineral xomashyoni chuqur qayta ishlash, import o'rnini bosuvchi hamda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish orqali tumanning sanoat salohiyati va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Tahlillar gaz-kimyo sanoati Qo'ng'iro't tumanining iqtisodiy rivojlanishida ustuvor tarmoqlardan biri ekanligini ko'rsatdi. Ustyurt gaz-kimyo majmuasi, «Ustyurtgaz» korxonalari hamda «O'ztransgaz» tizimiga qarashli kompressor stansiyalari tabiiy gazni qazib olish, qayta ishlash va transportirovka qilish jarayonlarida muhim ahamiyatga ega. Mazkur korxonalar sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish, eksport salohiyatini kengaytirish, investitsiyalarni jalb etish va yangi ish o'rinlarini yaratish orqali hudud iqtisodiyotining barqaror o'sishiga xizmat qilmoqda.

Qo'ng'iro't tumanining iqtisodiy salohiyatini shakllantirishda transport-logistika tizimi ham muhim ahamiyatga ega. Qo'ng'iro't temir yo'l uzeli hamda avtomobil kommunikatsiyalarining rivojlanganligi ichki va tashqi bozorlar bilan iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, yuk tashish hajmini oshirish hamda tranzit xizmatlarini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratmoqda. Bu esa sanoat mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazib berish samaradorligini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish va hududning logistika imkoniyatlarini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi ham Qo'ng'iro't tumani iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Tumanda paxtachilik, g'allachilik, sholichilik, sabzavotchilik, polizchilik, bog'dorchilik, chorvachilik hamda ozuqa ekinlarini yetishtirish rivojlangan bo'lib, ular aholi bandligini ta'minlash, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash va qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, tuz qazib olish va qayta ishlash hamda mahalliy qurilish materiallari ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanishi hudud iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va mahalliy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda.

Tahlil natijalari sanoat ishlab chiqarishining asosiy qismi mineral xomashyoni qazib olish va dastlabki qayta ishlashga ixtisoslashganligini aniqladi. Bu esa mavjud resurslardan foydalanish samaradorligini yanada oshirish uchun ularni chuqur qayta ishlash texnologiyalarini keng joriy etish zarurligini ko'rsatadi. Mineral resurslarni



chuqur qayta ishlash, gaz-kimyo va kimyo sanoatida yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, mahalliy sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etish hudud iqtisodiyotining raqobatbardoshligini yanada oshirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, qayta ishlash sanoatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ishtirokini kengaytirish aholi bandligini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiya qilishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Bu esa mahalliy xomashyoning qo'shilgan qiymatini oshirish va hudud iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Kompleks iqtisodiy baholash natijalari Qo'ng'iro't tumanini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida mineral resurslarni chuqur qayta ishlashga asoslangan yuqori texnologiyali sanoat tarmoqlarini rivojlantirish, soda, gaz-kimyo va kimyo sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, transport-logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish, eksportbop mahsulotlar turini ko'paytirish, investitsiya muhitini yanada takomillashtirish hamda mahalliy resurslardan samarali foydalanish asosida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatdi.

Umuman olganda, Qo'ng'iro't tumanining iqtisodiy salohiyati boy mineral xomashyo resurslari, rivojlangan sanoat infratuzilmasi va transport-logistika imkoniyatlari bilan belgilanadi. Mineral resurslarni chuqur qayta ishlash, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, transport-logistika tizimini takomillashtirish hamda mahalliy resurslardan samarali foydalanish hudud iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish va eksport salohiyatini yanada kengaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Mo'ynoq tumanining ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati va ustuvor rivojlanish yo'nalishlari

Iqtisodiy-statistik tahlil natijalari Mo'ynoq tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi Orolbo'yi mintaqasining o'ziga xos tabiiy-ekologik sharoiti, resurs salohiyati hamda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar ta'sirida yangi rivojlanish bosqichiga o'tayotganini aniqladi. Ilgari iqtisodiyoti asosan baliqchilik tarmog'iga ixtisoslashgan mazkur hududda keyingi yillarda gaz-kimyo sanoati, baliqchilik va akvakultura, xizmatlar sohasi, ekologik turizm hamda qishloq xo'jaligini diversifikatsiya qilishga qaratilgan investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi iqtisodiy o'sishning yangi manbalarini shakllantirmoqda. Natijada Mo'ynoq tumanining iqtisodiy tarkibi bosqichma-bosqich diversifikatsiya qilinib, iqtisodiy ixtisoslashuvi kengayib bormoqda.

Tahlil natijalariga ko'ra, 2023-yilda Mo'ynoq tumanida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 307,0 mlrd so'mni tashkil etib, sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 101,7 % ga yetdi. Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 9 165,1 ming so'mni, respublika sanoatidagi ulushi esa 1,6 % ni tashkil qildi. Shuningdek, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 1 225,2 mlrd so'm, qurilish ishlari hajmi 188,3 mlrd so'm, chakana savdo aylanmasi 105,2 mlrd so'm, xizmatlar hajmi 147,3 mlrd so'm hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 237,9 mlrd so'mni tashkil qildi [13].

Mazkur iqtisodiy ko'rsatkichlar investitsiya faolligining ortib borayotganini, iqtisodiyot tarmoqlari diversifikatsiyasi izchil davom etayotganini hamda yangi iqtisodiy o'sish manbalari shakllanayotganini aks ettirdi. Ayniqsa, investitsiyalar hajmining nisbatan yuqoriligi hududda amalga oshirilayotgan yirik sanoat va infratuzilma loyihalarining iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini tasdiqlaydi.

Kompleks iqtisodiy baholash natijalari gaz-kimyo sanoati Mo'ynoq tumanining strategik rivojlanishida ustuvor tarmoqlardan biriga aylanganini aniqladi. Xususan, **«Ustyurt gaz-kimyo majmuasi»**da tabiiy gazni chuqur qayta ishlash asosida polietilen va polipropilen kabi yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarilishi hududning eksport salohiyatini oshirish bilan bir qatorda sanoat tarmoqlarini diversifikatsiya qilishga ham xizmat qilmoqda. Shuningdek, Orol dengizining qurigan tubida joylashgan gaz konlarini o'zlashtirish va ular bilan bog'liq ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlanishi investitsiyalarni jalb qilish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda mahalliy budjet daromadlarini ko'paytirishning muhim iqtisodiy omillaridan biri sifatida baholandi.

Tahlil natijalari gaz-kimyo sanoati Mo'ynoq tumanining iqtisodiy ixtisoslashuvini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanishini ko'rsatdi. Mazkur tarmoqda yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarining kengayishi eksport salohiyatini oshirish bilan bir qatorda hudud iqtisodiyoti tarkibini diversifikatsiya qilish va investitsiya jozibadorligini yanada kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Tahlil natijalari Mo'ynoq tumanida baliqchilik va akvakultura iqtisodiyotining istiqbolli tarmoqlaridan biri sifatida rivojlanayotganini ko'rsatdi. Keyingi yillarda sun'iy suv havzalarida intensiv baliqchilikni rivojlantirish, qayta ishlash quvvatlarini kengaytirish hamda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tarmoqning iqtisodiy ahamiyatini yanada oshirmoqda. Xususan, «Muynak Aqua Sanoat» davlat unitar korxonasida baliqchilik mahsulotlarini zamonaviy texnologiyalar asosida qayta ishlashning yo'lga qo'yilishi mahalliy xomashyoning qo'shilgan qiymatini oshirish, oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish hamda eksport hajmini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, Orolbo'yi suv havzalarida Artemia salina bioresurslaridan sanoat miqyosida foydalanish Mo'ynoq tumani uchun istiqbolli eksport yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Ushbu bioresurslarni yig'ish va qayta ishlash mahalliy resurslardan samarali foydalanish, eksport tushumlarini ko'paytirish hamda yangi ish



o'rinlarini yaratish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Natijada hudud iqtisodiyotining tarmoq tarkibi takomillashib, iqtisodiy o'sishning qo'shimcha manbalari shakllanmoqda.

Qishloq xo'jaligi ham Mo'ynoq tumani iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi. Suv tanqisligi, tuproqlarning sho'rlanishi va qurg'oqchil iqlim dehqonchilik rivojlanishiga muayyan cheklovlar yaratsa-da, chorvachilik, ozuqa ekinlarini yetishtirish, issiqxona xo'jaligi, tomchilatib sug'orish hamda boshqa suv tejankor texnologiyalarni keng joriy etish tarmoqning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash quvvatlarini kengaytirish aholi bandligini ta'minlash, qishloq aholisi daromadlarini ko'paytirish hamda mahalliy bozorlarni raqobatbardosh mahsulotlar bilan ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kompleks tahlil natijalari Mo'ynoq tumanida iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, qayta ishlash sanoatini kengaytirish hamda resurs tejankor texnologiyalarni keng joriy etish bilan uzviy bog'liqligini aniqladi. Bunday yondashuv iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan bir qatorda hududning ekologik barqaror rivojlanishi uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Xizmatlar sohasida ham iqtisodiy faollik bosqichma-bosqich o'sib bormoqda. Savdo, transport, umumiy ovqatlanish, mehmonxona xizmati hamda boshqa servis xizmatlarining rivojlanishi xususiy tadbirkorlik faolligini kengaytirmoqda. Ayniqsa, Mo'ynoq shahrida turistik infratuzilmaning shakllanishi xizmatlar sohasining iqtisodiyotdagi ulushini oshirish va aholi bandligini ta'minlash uchun mustahkam iqtisodiy asos yaratdi.

Kompleks iqtisodiy baholash Mo'ynoq tumanida ekologik va tarixiy turizmni rivojlantirish uchun yuqori salohiyat mavjudligini aniqladi. «Kemalar qabristoni», Orol tarixi muzeyi, Ustyurt platosi hamda Orol dengizi inqirozi bilan bog'liq tabiiy landshaftlar mahalliy va xorijiy turistlarni jalb etuvchi muhim turistik resurslar hisoblanadi. Turizm infratuzilmasini takomillashtirish, mehmonxona va servis xizmatlarini kengaytirish hamda xususiy investitsiyalarni jalb qilish xizmatlar sohasini rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va mahalliy budjet daromadlarini ko'paytirishga xizmat qiladi.

Tahlil natijalari ekologik turizmni rivojlantirish tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ulardan barqaror foydalanish tamoyillarini iqtisodiy rivojlanish bilan uyg'unlashtirish imkonini berishini ko'rsatdi. Shuningdek, mazkur yo'nalish xizmatlar sohasini kengaytirish, xususiy sektor faolligini rag'batlantirish hamda hududning investitsiya jozibadorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kompleks iqtisodiy baholash natijalari Mo'ynoq tumanini rivojlantirishda gaz-kimyo sanoatini kengaytirish, tabiiy gazni chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish, baliqchilik va akvakulturani modernizatsiya qilish, resurs tejankor qishloq xo'jaligi texnologiyalarini joriy etish, ekologik turizm infratuzilmasini takomillashtirish, xizmatlar sohasida xususiy sektor ishtirokini kengaytirish hamda transport-kommunikatsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish ustuvor yo'nalishlar ekanligini aniqladi.

Shunday qilib, kompleks iqtisodiy baholash natijalari Mo'ynoq tumanida gaz-kimyo sanoati, baliqchilik va akvakultura, xizmatlar sohasi hamda ekologik turizmni o'zaro uyg'un rivojlantirish hudud iqtisodiyoti barqaror o'sishining asosiy omillaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Ushbu yo'nalishlarni izchil rivojlantirish iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi turmush darajasini yuksaltirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Qonliko'l tumanining ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati va ustuvor rivojlanish yo'nalishlari

Iqtisodiy-statistik tahlil natijalari Qonliko'l tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi agrosanoat yo'nalishi asosida shakllanayotganini aniqladi. Hudud iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi, qayta ishlash sanoati, xizmatlar sohasi hamda kichik biznesning o'zaro uyg'un rivojlanishi iqtisodiy o'sishning asosiy manbalari hisoblanadi. Mavjud yer va mehnat resurslaridan samarali foydalanish, mahalliy xomashyoni qayta ishlash va investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan chora-tadbirlar hudud iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun iqtisodiy zamin yaratmoqda.

Tahlil natijalariga ko'ra, 2023-yilda Qonliko'l tumanida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 392,9 mlrd so'mni tashkil etib, sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 101,3 % ga yetdi. Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 7 358,9 ming so'mni, respublika sanoatidagi ulushi 2,1 % ni tashkil qildi. Shuningdek, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 270,0 mlrd so'm, qurilish ishlari 321,3 mlrd so'm, chakana savdo aylanmasi 239,2 mlrd so'm, xizmatlar hajmi 266,2 mlrd so'm hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish 524,4 mlrd so'mni tashkil qildi [13].

Mazkur ko'rsatkichlar Qonliko'l tumanida iqtisodiy o'sishning asosiy tayanchi qishloq xo'jaligi ekanligini, sanoat va xizmatlar sohasida esa bosqichma-bosqich tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, investitsiyalar hajmining ortishi ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash va yangi ish o'rinlarini yaratishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada hudud iqtisodiyotining raqobatbardoshligi bosqichma-bosqich ortib bormoqda.

Qishloq xo'jaligi Qonliko'l tumani iqtisodiyotida yetakchi o'rin tutadi. Paxtachilik, g'allachilik, sabzavotchilik, polizchilik, chorvachilik hamda ozuqa ekinlarini yetishtirish aholi bandligini ta'minlash va qayta ishlash sanoati uchun barqaror xomashyo bazasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va agrotexnologiyalarni takomillashtirish



mahsuldorlikni oshirish hamda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tahlil natijalari mahalliy xomashyoni qayta ishlash iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim omillaridan biri ekanligini aniqladi. Xususan, «Kanteks Invest» MCHJda paxta xomashyosining chuqur qayta ishlanishi yuqori qo'shilgan qiymatli to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirishga xizmat qilmoqda. «Qanliko'l Agro Cluster» MCHJ esa paxta yetishtirishdan tortib, uni qayta ishlashgacha bo'lgan yagona ishlab chiqarish zanjirini shakllantirish orqali resurslardan samarali foydalanish va eksportbop mahsulotlar ulushini oshirishga hissa qo'shmoqda. Bu kabi klaster yondashuvi qishloq xo'jaligi va sanoat o'rtasidagi iqtisodiy integratsiyani kuchaytirib, hudud iqtisodiyotida qo'shimcha qiymat yaratishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, tumandagi tikuv-trikotaj korxonalari tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, xotin-qizlar va yoshlar bandligini ta'minlash hamda kichik biznesning iqtisodiyotdagi ulushini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qabul qilish, saqlash va qayta ishlash korxonalari, agroservis xizmatlari hamda qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalari sanoat tarmoqlarini diversifikatsiya qilishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, qizilmiya, ya'ni lakritsa ildizini qayta ishlash eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.


Transport va kommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy rivojlanishda muhim o'rin tutadi. Magistral gaz quvurlari, kompressor stansiyalari va temir yo'l tarmoqlari sanoat hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashish xarajatlarini kamaytirish, logistika tizimini takomillashtirish va investitsiya loyihalarini amalga oshirishga xizmat qilmoqda.


Kompleks iqtisodiy tahlil natijalari Qonliko'l tumanining iqtisodiy o'sishi agrosanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash hamda klaster tizimini kengaytirish bilan uzviy bog'liqligini aniqladi. Qishloq xo'jaligi, qayta ishlash sanoati va xizmatlar sohasining o'zaro integratsiyasi hudud iqtisodiyoti barqaror o'sishining asosiy omillaridan biri sifatida namoyon bo'ldi.

Shunday qilib, amalga oshirilgan kompleks iqtisodiy baholash Qonliko'l tumanida paxta-to'qimachilik klasterlarini rivojlantirish, mahalliy xomashyoni yuqori qo'shilgan qiymat asosida qayta ishlash, qurilish materiallari sanoatini kengaytirish, eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish hamda transport-logistika infratuzilmasini takomillashtirish ustuvor rivojlanish yo'nalishlari ekanligini ko'rsatdi. Ushbu yo'nalishlarni izchil amalga oshirish hududning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish, aholi bandligini ta'minlash hamda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun mustahkam asos bo'ladi.

Qo'ng'iro't, Mo'ynoq va Qonliko'l tumanlarining ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatining qiyosiy tahlili

Orolbo'yi hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini baholash maqsadida Qo'ng'iro't, Mo'ynoq va Qonliko'l tumanlarining 2023-yil yakunlari bo'yicha asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari qiyosiy tahlil qilindi. Kompleks baholash sanoat, investitsiyalar, xizmatlar sohasi, qishloq xo'jaligi hamda iqtisodiy ixtisoslashuv ko'rsatkichlarini o'zaro taqqoslash asosida amalga oshirildi. Qiyosiy tahlil natijalari 1-rasmda aks ettirilgan.





1-rasm. Qo'ng'iro't, Mo'ynoq va Qonliko'l tumanlarining iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari (2023-yil)

1-rasm ma'lumotlari tahliliga ko'ra, Qo'ng'iro't tumani sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, investitsiyalar hamda xizmatlar sohasi rivojlanganligi bo'yicha tahlil qilingan tumanlar orasida yetakchi o'rinni egallaydi. Bu holat gaz-kimyo sanoati, soda ishlab chiqarish, mineral xomashyo resurslari hamda transport-logistika infratuzilmasining yuqori darajada rivojlanganligi bilan bog'liq.

Mo'ynoq tumanida sanoat ko'rsatkichlari nisbatan past bo'lishiga qaramasdan, investitsiya faolligining yuqoriligi hudud iqtisodiyoti tarkibida muhim tarkibiy o'zgarishlar kechayotganligini ko'rsatadi. Gaz-kimyo sanoati, akvakultura, bioresurslardan samarali foydalanish hamda ekologik turizm iqtisodiy o'sishning yangi drayverlari sifatida shakllanmoqda.

Qonliko'l tumani iqtisodiyotida agrar sektor ustuvor ahamiyatga ega bo'lib, paxtachilik, g'allachilik, to'qimachilik, mahalliy xomashyoni qayta ishlash hamda agroklastarlar iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillari hisoblanadi. Bu hududda qayta ishlash sanoatini rivojlantirish va mahalliy resurslardan samarali foydalanish iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Hududlarning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari bilan bir qatorda ularning iqtisodiy ixtisoslashuvi, raqobat ustunliklari hamda ustuvor rivojlanish yo'nalishlarini kompleks qiyosiy baholash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda Qo'ng'iro't, Mo'ynoq va Qonliko'l tumanlarining iqtisodiy salohiyati, iqtisodiy drayverlari hamda ustuvor rivojlanish yo'nalishlari umumlashtirilib, 1-jadvalda keltirildi.

1-jadval
Qo'ng'iro't, Mo'ynoq va Qonliko'l tumanlarining iqtisodiy salohiyati
hamda ustuvor rivojlanish yo'nalishlarining qiyosiy tahlili

№	Ko'rsatkich	Qo'ng'iro't tumani	Mo'ynoq tumani	Qonliko'l tumani
1	Iqtisodiyotning asosiy yo'nalishi	Sanoat, gaz-kimyo, konchilik va transport-logistika	Gaz-kimyo, baliqchilik, ekoturizm va xizmatlar	Qishloq xo'jaligi, to'qimachilik va qayta ishlash sanoati
2	Sanoatning asosiy tarmoqlari	Qo'ng'iro't soda zavodi, Ustyurt gaz-kimyo majmuasi, tuz qazib olish	Gaz-kimyo, baliqchilik mahsulotlarini qayta ishlash, <i>Artemia salina</i>	To'qimachilik, agroklastar, lakritsa va qurilish materiallari
3	Qishloq xo'jaligining ixtisoslashuvi	Paxtachilik, g'allachilik, sabzavotchilik, sholichilik va chorvachilik	Chorvachilik, baliqchilik, ozuqa ekinlari	Paxtachilik, g'allachilik, sabzavotchilik va chorvachilik
4	Asosiy investitsiya yo'nalishlari	Sanoat, gaz-kimyo va transport infratuzilmasi	Gaz-kimyo, turizm va baliqchilik	To'qimachilik, qishloq xo'jaligi va qayta ishlash sanoati



5	Xizmatlar sohasi	Transport va logistika xizmatlari	Turizm, mehmonxona va servis xizmatlari	Savdo, maishiy xizmatlar va kichik biznes
6	Eksport salohiyati	Soda, gaz-kimyo mahsulotlari, mineral resurslar	Gaz-kimyo mahsulotlari, baliq mahsulotlari, <i>Artemia salina</i>	Ip-kalava, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, lakritsa
7	Asosiy rivojlanish omillari	Mineral resurslar, transport yo'laklari, sanoat infratuzilmasi	Tabiiy resurslar, investitsiyalar, ekoturizm	Agroklastlar, mahalliy xomashyo va to'qimachilik
8	Ustuvor rivojlanish yo'nalishlari	Gaz-kimyo va kimyo sanoatini chuqur qayta ishlash, logistikani rivojlantirish	Gaz-kimyo, akvakultura, <i>Artemia salina</i> , turizm infratuzilmasini rivojlantirish	To'qimachilikni kengaytirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, har bir tumanning iqtisodiy rivojlanish modeli uning mavjud tabiiy resurslari, ishlab chiqarish quvvatlari, investitsiya faolligi hamda iqtisodiy ixtisoslashuvi ta'sirida shakllangan. Qo'ng'iro't tuman yuqori sanoatlashgan hudud sifatida gaz-kimyo, kimyo sanoati va transport-logistika sohalariga ixtisoslashgan bo'lib, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport salohiyatini kengaytirish uchun qulay iqtisodiy imkoniyatlarga ega.

Mo'ynoq tumanida esa gaz-kimyo sanoati, akvakultura, bioresurslardan samarali foydalanish hamda ekologik turizm iqtisodiy o'sishning yangi drayverlari sifatida shakllanib, iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiya qilish va investitsiyalarni jalb etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Qonliko'l tumanida agrosanoat majmuasi, to'qimachilik, mahalliy xomashyoni qayta ishlash va agroklastlar iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo'nalishlarini tashkil etib, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining qo'shilgan qiymatini oshirish va aholi bandligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Olingan natijalar Orolbo'yi hududlarida iqtisodiy rivojlanish darajasi, tarmoqlar ixtisoslashuvi hamda iqtisodiy o'sish omillari bo'yicha sezilarli hududiy tafovutlar mavjudligini ko'rsatdi. Kompleks qiyosiy tahlil har bir tumanning iqtisodiy salohiyati tabiiy resurslar, investitsiya faolligi, ishlab chiqarish infratuzilmasi va iqtisodiy drayver tarmoqlar bilan uzviy bog'liq ekanligini aniqladi. Shu sababli Orolbo'yi hududlarini rivojlantirishda yagona yondashuv emas, balki har bir tumanning iqtisodiy ixtisoslashuvi va resurs imkoniyatlariga mos differensial rivojlanish strategiyasini amalga oshirish maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi Orolbo'yi hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati kompleks iqtisodiy-statistik tahlil asosida baholandi. Qiyosiy tahlil Qo'ng'iro't, Mo'ynoq va Qonliko'l tumanlarining iqtisodiy rivojlanish darajasi, tarmoqlar ixtisoslashuvi hamda iqtisodiy o'sish omillari o'zaro farq qilishini aniqladi. Hududlarning rivojlanish darajasi tabiiy resurs salohiyati, investitsiya faolligi, ishlab chiqarish infratuzilmasi va iqtisodiyot tarmoqlarining tarkibiy xususiyatlari bilan bevosita bog'liqligi belgilandi.

Qiyosiy baholash natijalari har bir tumanning iqtisodiy ixtisoslashuvi va raqobat ustunliklarini hisobga olgan holda rivojlantirish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatdi. Shu sababli Orolbo'yi hududlarida yagona rivojlanish modeli emas, balki har bir hududning resurs imkoniyatlari va iqtisodiy drayverlariga asoslangan differensial rivojlanish strategiyasini amalga oshirish tavsiya etiladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi Qoraqalpog'iston Respublikasi Orolbo'yi hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini rasmiy statistik ma'lumotlar asosida kompleks qiyosiy baholash, Qo'ng'iro't, Mo'ynoq va Qonliko'l tumanlarining iqtisodiy ixtisoslashuvi hamda iqtisodiy o'sish drayverlarini aniqlash, shuningdek, har bir hududning resurs salohiyati va iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni differensial rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, Qo'ng'iro't tumanida gaz-kimyo, kimyo sanoati hamda transport-logistika tarmoqlarini kengaytirish, Mo'ynoq tumanida gaz-kimyo sanoati, akvakultura, bioresurslardan samarali foydalanish va ekologik turizmni rivojlantirish, Qonliko'l tumanida esa agrosanoat majmuasi, to'qimachilik hamda mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlashni kengaytirish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilandi.

Tahlil natijalari asosida quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiya qilish va mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash hisobiga yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish;



Qo'ng'iro't tumanida gaz-kimyo va kimyo sanoati klasterlarini rivojlantirish hamda transport-logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish;

Mo'ynoq tumanida akvakultura, ekologik turizm va Artemia salina bioresurslaridan sanoat asosida samarali foydalanish ko'lamini kengaytirish;

Qonliko'l tumanida agroklastlar faoliyatini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, to'qimachilik sanoati va xizmatlar sohasining ulushini oshirish;

investitsiya muhitini takomillashtirish hamda qayta ishlash sanoati va xizmatlar sohasiga investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini kuchaytirish.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar va amaliy takliflarni Qoraqalpog'iston Respublikasi Orolbo'yi hududlarini kompleks rivojlantirish dasturlarini takomillashtirish, hududiy investitsiya siyosatini takomillashtirish, mahalliy resurslardan samarali foydalanish hamda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga oid boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishda qo'llash imkoniyati bilan belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. White K.D. *Nature and Economy in the Aral Sea Basin*. In: *The Aral Sea*. — Springer, 2014.
3. Morris S. *Zone Development Studies*. — Melbourne: Melbourne University Press, 2021. — 214 p.
4. Todaro M.P., Smith S.C. *Economic Development*. 13th ed. — Harlow: Pearson, 2020.
5. UNDP. *Regional Development Report: Uzbekistan*. — Tashkent: United Nations Development Programme (UNDP), 2020.
6. Batrakova L.G. Региональная экономика. — Москва: ИНФРА-М, 2018.
7. Pardayev M.Q. Regional iqtisodiyot. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
8. Muxsimova D. O'zbekiston hududlarida sanoat diversifikatsiyasi masalalari // *The Innovation Economy*. — 2025. — № 5.
9. Aimbetov N.K., Tleumuratova B.S., Mambetullayeva S.M. Динамика и потенциал природной среды Каракалпакстана: монография. — Нукус: Илим, 2017. — 252 с.
10. Samanov J. Qoraqalpog'iston Respublikasining geologiyasi va mineral resurslari. — Nukus, 2023. — B. 290–310.
11. Niyazimbetov M.K. Ekologik o'zgarishlar sharoitida mintaqaviy tizimning ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik moslashuvini integral baholash (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida) // O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Axborotnomasi. — 2026. — № 1. — B. 101–105.
12. Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika boshqarmasi. Qoraqalpog'iston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. Statistika byulletenlar. — Nukus, 2022–2023.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>